



TO'Q-QALA YODGORLIGINING ME'MORIY-FAZOVIIY TUZILISHI VA TURAR-JOY ARHITEKTURASI (VII-XI ASRLAR)

Shnekeev Jumabay Kalimbetovich

arxitektura fanlari doktori, professor, Berdaq nomidagi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Utegenov Xalbay Konarbaevich

katta o'qituvchi, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq

davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21466714>

Annotatsiya. Tezisd Kerder madaniyatining To'q-qala yodgorligi (Toktau tepaligi, Nukus tumanida joylashgan) – shu paytgacha asosan arxeologik jihatdan o'rganilgan majmua – arxitektura obyekti sifatida qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Tahlil natijasida yodgorlikning harbiy-fortifikatsion mohiyati faqat antik qatlamga (mil. avv. IV–III asr) xosligi, Kerder qatlami (VII–XI asr) esa mudofaasiz turar-joy-hunarmandchilik manzilgohi ekani aniqlanadi. Kerder turar-joy seksiyalari afrig'iy Xorazm an'anasidan kelib chiqishi va Xayvan-qala hamda Qurg'ancha “uy-massiv” rejasidan farqlanishi ko'rsatiladi; shu asosda Kerder turar-joy me'morchiligida ikki an'ana yonma-yon rivojlangani xulosa qilinadi.

Аннотация. В тезисе памятник Ток-кала (возвышенность Токтау, близ Нукуса) кердерской культуры – до сих пор изучавшийся преимущественно с археологической точки зрения – рассматривается как объект архитектуры на основе сравнительно-типологического анализа. В результате устанавливается, что военно-фортификационная сущность присуща только античному слою (IV–III вв. до н.э.), тогда как кердерский слой (VII–XI вв.) представляет собой неукреплённое жилищно-ремесленное поселение. Показано, что кердерские жилые секции восходят к афригидской хорезмийской традиции и отличаются от планировки «дом-массив» Хайван-калы и Курганчи; на этом основании делается вывод о сосуществовании двух традиций в кердерской жилой архитектуре.

Abstract. The thesis analyzes the Tok-kala site (Toktau upland, near Nukus) of the Kerder culture – hitherto studied mainly from an archaeological standpoint – as an object of architecture, through comparative-typological analysis. The analysis establishes that the military-fortification character belongs only to the antique layer (4th–3rd c. BC), whereas the Kerder layer (7th–11th c.) is an unfortified residential-craft settlement. The Kerder residential sections are shown to derive from the Afrighid Khorezmian tradition and to differ from the “house-massif” layout of Khaivan-kala and Kurgancha; on this basis the thesis concludes that two traditions coexisted in Kerder residential architecture.



Kalit so'zlar: To'q-qala, Kerder madaniyati, Toktau, antik qal'a, fortifikatsiya, turar-joy seksiyasi, uy-massiv, afrig'iy Xorazm, qiyosiy me'moriy tahlil.

Ключевые слова: Ток-кала, кердерская культура, Токтау, античная крепость, фортификация, жилая секция, дом-массив, афригидский Хорезм, сравнительный архитектурный анализ.


Keywords: Tok-kala, Kerder culture, Toktau, antique fortress, fortification, residential section, house-massif, Afrighid Khorezm, comparative architectural analysis.

KIRISH

Kerder madaniyati – Amudaryoning Orol deltasida VII asr ikkinchi yarmi – VIII asr boshida shakllanib, XI (ayrim yodgorliklarda XII) asrgacha davom etgan ilk o'rta asr madaniyati bo'lib, uning eng yaxshi o'rganilgan yodgorliklaridan biri Nukus tumanidagi To'q-qala (Toktau tepaligi) majmuasidir. Yodgorlik ko'proq bo'yoqli ossuariylari bilan mashhur bo'lsa-da, uning turli davr inshootlari – antik qal'adan Kerder turar-joy va kult arxitekturasigacha – yaxlit me'moriy tahlil predmeti sifatida kam o'rganilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi – Toktau tepaligini ko'p qatlamli me'moriy majmua sifatida ko'rib chiqib, antik fortifikatsiyani Kerder turar-joy me'morchiligidan ajratish hamda Kerder seksiyalarini boshqa Xorazm yodgorliklari bilan qiyosiy o'rganishdan iborat.

ASOSIY QISM

To'q-qala Toktau qoldiq tepaligida joylashgan ko'p qatlamli majmuadir. Tepalikning eng qadimgi qismi – antik davr (mil. avv. IV–III asr) Xorazm chegara qal'asi: burchaklari tomonlarga yo'naltirilgan, qo'sh devorli, devor ichida o'qchilar galereyasi joylashgan; tashqarida yarim oval minoralar (chiqishi 7 m, kurtinalar oralig'i 28 m), g'arbiy va janubiy burchaklarda "qaldirg'och dumi" minoralari mavjud; devor va minoralar paxsa tsokol ustiga xom g'ishtdan ko'tarilgan. Janubi-g'arbiy devor 50 m cho'zilgach, qal'a ichiga 40 m dan ortiq tortilgan labirint-darvoza keladi; maydoni ≈ 1 ga bo'lib, ichki qurilishi deyarli yo'q – bu antik To'q-qala fuqaro aholisiz, aktiv mudofaaga mo'ljallangan harbiy chegara qal'asi ekanini ko'rsatadi.



1-рasm. То'қ-қала yodgorligining bosh rejasi:
antik qal'a va qazishma uchastkalari

Keyinroq tepalikda ilk Kerder (VII asr oxiri – VIII asr) va so'nggi Kerder (IX–XI asr) turar-joy manzilgohlari shakllangan: oddiy devor bilan o'ralgan, o'tish yo'li bilan tutashgan ikki hovli, standart izolyatsiyalangan turar-joy seksiyalari, devor bo'ylab sufalar va markaziy o'choqqa ega uy olov-ibodatxonasi, shuningdek sopol pishirish xumdoni hamda mis-bronza quyish izlari qayd etilgan [1].

Hududiy jihatdan antik To'q-qala Gyaur-qala Mizdaxqan bilan birga Orol deltasining shimoli-g'arbiy chegara qal'alari qatorini tashkil etib, otliq garnizonli istehkom sifatida Xorazm o'zagiga olib boruvchi yo'llarni nazorat qilgan. Kerder madaniyatining boshqa yirik yodgorliklari – Xayvan-qala va Qurg'ancha – markaziy ko'cha atrofiga tizilgan "uy-massiv" rejasiga ega bo'lib, bu reja antik Topraq-qala va Janbas-qala an'analarini takrorlaydi [2].

Yodgorlik xronologiyasi ossuariy yozuvlari bilan mustahkamlanadi: xorazmiy erasidagi sanalar majmuaning asosiy qatlamini VIII asrga joylashtiradi [3].

Fortifikatsiya jihatidan qo'sh devor, devoriy o'qchilar galereyasi va labirint-darvoza tizimi bilan antik To'q-qala ilk qangju davri tipik Xorazm qal'asi bo'lib, Ayaz-qala timsolidagi mumtoz antik Xorazm istehkom maktabiga mansubdir [4].

Turar-joy me'morchiligida esa To'q-qalaning izolyatsiyalangan seksiyalari afrig'iy Xorazm qishloq turar-joylari an'anasidan kelib chiqadi [5].

Demak, Kerder turar-joy arxitekturasida ikki yo'nalish – afrig'iy Xorazm (seksiya) va mahalliy antik (uy-massiv) an'analari – yonma-yon rivojlangan; To'q-qala birinchi yo'nalishning yorqin namunasidir.

XULOSA

Toktau tepaligi – antik chegara harbiy qal'asidan Kerder turar-joy manzilgohigacha cho'zilgan ko'p qatlamli me'moriy majmua: harbiy-istehkom mohiyati antik qatlarga (mil. avv. IV–III asr); turar-joy-hunarmandchilik



mohiyati esa Kerder qatlamiga (VII–XI asr) xosdir. Kerder davri me'moriy yadrosini oddiy devor bilan o'ralgan ikki hovli, standart izolyatsiyalangan turar-joy seksiyalari, uy olov-ibodatxonasi hamda sopol va metall ishlab chiqarish majmualari tashkil etadi. Qiyosiy tahlil ko'rsatadiki, To'q-qala fortifikatsiyasi Ayaz-qala timsolidagi antik Xorazm istehkom maktabiga, turar-joy tizimi esa afrig'iy Xorazm an'anasiga bog'liq. Amaliy taklif: To'q-qalaning katta qismi zamonaviy qabriston ostida qolgan va eroziyaga uchragan, shu bois antik qal'a devorlari va Kerder turar-joy seksiyalarini 3D-hujjatlashtirish, huquqiy muhofaza maqomini mustahkamlash va yodgorlikni Kerder me'morchiligi etaloni sifatida muzeylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гудкова А.В. Ток-кала. – Ташкент: Фан, 1964. – 162 с.
2. Комплекс археологических объектов на возвышенности Крантау / В.Н. Ягодин, Г.Х. Ходжаниязов, Ш.Ш. Амиров и др. (Археология Приаралья. Вып. VII). – Ташкент: Фан, 2008.
3. Толстов С.П., Лившиц В.А. Датированные надписи на хорезмийских оссуариях с городища Ток-кала // Советская этнография. – 1964. – С. 50–69.
4. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд-во МГУ, 1948.
5. Неразик Е.Е. Сельские поселения афригидского Хорезма. – М.: Наука, 1966.